







YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 37 913,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 2,8 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	33 242,4	37 913,7	102,8
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 085,9	36 157,8	102,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 156,5	1 755,9	103,0
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 085,9	36 157,8	102,7
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 054,6	15 676,0	102,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 331,4	10 531,7	104,6
	sanoat	7 761,1	8 551,7	104,6
	qurilish	1 570,3	1 980,0	104,9
	Xizmatlar	8 699,9	9 950,1	100,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 921,5	2 164,3	99,3

		Mlrd. so‘m		O‘sish sur‘atlari, o‘tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 660,8	1 904,6	104,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 117,6	5 881,2	99,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 12 006,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga yuqoridir.



**Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi
va mutlaq o‘sish sur‘atlari**









Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 43,4 % ni, sanoat tarmog‘i 23,7 % ni, qurilish 5,5 % ni va xizmatlar sohasi 27,4 % ni tashkil qildi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,5	95,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,5	4,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	43,8	43,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	29,1	29,2
	sanoat	24,2	23,7
	qurilish	4,9	5,5
	Xizmatlar	27,1	27,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	6,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	15,9	16,1




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,4 %), sanoatda – 104,6 % (23,7 %), qurilishda – 104,9 % (5,5 %), xizmatlar sohasida – 100,6 % (27,4 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 99,3 % (6,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,7% (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 99,7 % (16,1 %) dan iborat bo'ldi.




YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda -120,3 % va xizmatlar sohasida – 113,7 % qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilga nisbatan % da)

